

## MUSTAQIL TA'LIMNING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Xodjayeva Nargizaxon**

**PhD tayanch doktoranti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18515025>**

**Аннотация:** В статье рассматривается современная тенденция стремления личности к самостоятельности и актуальность самостоятельного обучения в системе образования. Быстрое обновление знаний и рост объема информации требуют от личности непрерывного обучения. Анализируются исторические основы самостоятельного обучения, начиная с античного периода, а также его развитие в США и Европе в XIX–XX веках. Теоретической базой исследования послужили концепция самообразования М. Ноулза, социально-когнитивная теория А. Бандуры и идеи саморегуляции обучения. Сопоставляются педагогический и андрагогический подходы, раскрывается значение ключевых компетенций самостоятельного обучения.

**Ключевые слова:** самостоятельное обучение, самообразование, андрагогика, педагогика, мотивация, компетенции, непрерывное образование

**Annotation:** This article examines the growing global tendency toward personal independence and the relevance of self-directed learning in education. Rapid changes in knowledge and the expansion of information flows require individuals to engage in continuous learning. The historical roots of self-directed learning from ancient times and its development in the United States and Europe in the nineteenth and twentieth centuries are analyzed. The study is theoretically grounded in Malcolm Knowles' self-directed learning theory, Albert Bandura's social cognitive theory, and concepts of self-regulated learning. Pedagogical and andragogical approaches are compared, highlighting the importance of self-directed learning competencies in modern education.

**Key words:** self-directed learning, self-regulation, andragogy, pedagogy, motivation, competencies, lifelong learning

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahonda shaxsning mustaqillikka intilishi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning dolzarbligi yoritilgan. Axborot oqimining keskin ortishi, bilimlarning tez yangilanishi shaxsni uzluksiz o'rganishga undaydi. Mustaqil ta'limning tarixiy ildizlari antik davrlarga borib taqalishi, shuningdek, XIX–XX asrlarda AQSH va Yevropada rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda M. Knowlesning self-directed learning nazariyasi, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi va o'z-o'zini boshqarish g'oyalari asosiy nazariy tayanch sifatida o'rganiladi. Pedagogik va andragogik yondashuvlar taqqoslanib, mustaqil ta'lim kompetensiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi boshqarish, andragogika, pedagogika, motivatsiya, kompetensiya, uzluksiz ta'lim

Hozirda jahonda yangi tendensiya vujudga kelmoqda, bu har sohada shaxsning mustaqillikka bo'lgan intilishidir. Shu jumladan, ta'lim olishdagi mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj dolzarb hisoblanadi. Dunyo juda tez o'zgarayotgani, axborotning keskin ko'paygani va yangi bilimlarning uzluksiz yaratilishi shaxsni doimiy ravishda o'rganishga majbur qiladi. Bu o'rganish jarayoni ko'pincha ta'lim tizimida mavjud bo'lsa ham, ko'p hollarda aynan shaxsning o'z tashabbusi bilan bo'ladi.

Mustaqil ta'lim tarixi juda antik davrlardan beri mavjud bo'lib u yunon olimlari, xususan, Suqrot, Pluton, Aristotel va tarixiy shaxslar Aleksandr Makedonskiy, Y.Sezar, Erasmus hayotida muhim o'rin tutgan. Boshlang'ich mustaqil ta'lim bilan tadqiqotlarni boshlashga urinishlar 170 yil avval AQSHda boshlandi. Kreik 1840-yilda ba'zi shaxslarning mustaqil ta'limdagi yutuqlarini yozib bordi. Ayni bir vaqtning o'zida Buyuk Bitaniyada Smayls(Smiley) 1859-yilda Self-Help ya'ni "O'zingga Yordam" deb nomlangan kitob yozdi va jamiyatda shaxsiy rivojlanishning qadrini ko'kka ko'tardi<sup>1</sup>.

Jahonda mustaqil ta'lim maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib boshlang'ich ta'lim maktablarida Mariya Montessori pedagogikasiga asoslanib bolalarga o'rgatilib kelinadi. Montessori metodi- erta bolalikdan mustaqil o'rganishni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlangan.Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik mustaqil o'rganish madaniyatini yaratishda muhim hisoblanadi<sup>2</sup>.

O'rta maktabdan Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim ilg'or rivojlangan bo'lib o'quvchilar o'z oldilariga maqsad qo'yadilar va shu maqsad sari ichki va tashqi rag'batlari orqali izlanib tadqiqot qiladilar va bilim oladilar.

Jahondagi mustaqil ta'limni o'rgangan K.Novles,A.Bandura,B.Zimmermanlarning nazariyalariga tayandik.Xususan, Malkolm Novles 1975-yilda (self-directed learning)mustaqil ta'lim haqida kitob yozadi va u quyidagicha ta'rif beradi: "Mustaqil ta'lim- bu talabalar o'z tashabbusi bilan boshqalarning yordami bilan yoki ularning yordamisiz o'z ta'lim ehtiyojlarini aniqlaydi, ta'lim maqsadlarini shakllantiradi, o'rganish uchun insoniy va moddiy resurslarni aniqlaydi,mos o'rganish strategiyalarini tanlaydi va amalga oshiradi va o'rganish natijalarini baholaydi". Uning mustaqil ta'lim nazariyasiga ko'ra mustaqil ta'lim faqatgina individual tarzda o'rganilmaydi. Aksincha, u o'qituvchilar,manbaalar va guruhdoshlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Uning fikricha self-directed learning ya'ni mustaqil ta'lim atamasi quyidagilar bilan bir hil ma'no kasb etadi:

Self-planned learning (o'z-o'zini rejalashtirilgan ta'lim)

Inquiry method (izlanish metodi)

Independent learning (mustaqil o'rganish)

Self-education (o'z-o'zini ta'lim qilish)

Self-instruction (o'z-o'ziga ko'rsatma berish)

Self-teaching (o'z-o'zini o'qitish)

Self-study (o'z-o'zini o'rganish)

Autonomous learning (avtonom ta'lim)

Malkolm Novles o'z nazariyasida ikki hil yondashuvni taqqoslaydi<sup>3</sup>. Unga ko'ra 1-si pedagogik yondashuv bo'lib o'qituvchi tomonidan boshqariladigan(Teacher-centered learning)va bunda o'qituvchi nima va qanday o'rgatilishini hal qiladi va talabalar buni qabul qiladilar. Bunda talaba qaram shaxs hisoblanib uning tajribasi o'qituvchi, darslik mualliflarinikiga qaraganda kam

<sup>1</sup> Hiemstra R. Self-Directed Learning // The International Encyclopedia of Education / T. Husen & T. N. Postlethwaite (eds.). — 2-ed. — Oxford : Pergamon Press, 1994. — P. 1–15.

<sup>2</sup> Muammar Qadafi et al., "Fostering Independent Learning in Early Childhood: A Case Study on Montessori Pedagogy at PAUD Montessori Futura Indonesia," *Golden Age: Jurnal Ilmiah Tumbuh Kembang Anak Usia Dini* 8, no. 3 (September 20, 2023): 109–20, [https://doi.org/10.14421/jga.2023.83-01.\(110-p.\)](https://doi.org/10.14421/jga.2023.83-01.(110-p.))

<sup>3</sup> Knowles, M. S. Mustaqil ta'lim: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun qo'llanma / Malcolm S. Knowles. – Chicago: Follett Publishing Company; Association Press, 1975. – 135 b. – ISBN 0-695-81116-9.

qiyamatlidir. Talabalarning asosiy o'qish motivatsiyasi baholar, diplomlar, mukofotlar yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish orqali oshiriladi.

M.Knovles pedagogik yondashuvga taqqoslagan 2- yondashuv esa andragogik yondashuv edi. Bunda talaba o'z ta'limiga ma'sul bo'lib o'qituvchi fasilitator vazifasini bajaradi. Talabalar o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi va bu qobiliyat yetuklikning muhim komponenti hisoblanib talabaning tajribasi o'rganish uchun tobora boyib boradigan resursga aylanadi. Talaba o'z qiziqishlari, o'zini hurmat qilishi, muvaffaqiyatga intilishi orqali ichki motivatsiyalarini kuchaytiradilar. K.Novlesning fikricha mustaqil ta'limning 9ta kompetensiyalari mavjud bo'lib ular:

### **1. Tushunish qobiliyati**

O'qituvchi tomonidan boshqariladigan va mustaqil ta'lim haqidagi taxminlarning farqini va har bir turdagi ta'lim uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni tushunish va boshqalarga tushuntirish qobiliyati.

### **2. O'z-o'zini anglash**

Hech kimga qaram bo'lmagan va o'z-o'zini boshqaruvchi shaxs sifatida tasavvur qilish qobiliyati.

### **3. Tengdoshlar bilan hamkorlik**

Tengdoshlar bilan hamkorlikda munosabatda bo'lish, ularni ehtiyojlarni aniqlash, ta'limni rejalashtirish va o'rganish uchun resurs sifatida ko'rish; ularga yordam berish va ulardan yordam olish qobiliyati.

### **4. O'z ehtiyojlarini aniqlash**

O'qituvchilar va kursdoshlarning yordami bilan o'z ta'lim ehtiyojlarini real holda aniqlash qobiliyati.

### **5. Maqsadlarni shakllantirish**

O'rganish ehtiyojlarini baholanishi mumkin bo'lgan shaklda o'rganish maqsadlariga aylantirish qobiliyati.

### **6. O'qituvchilar bilan munosabat**

O'qituvchilar bilan fasilitatorlar, yordamchilar yoki maslahatchilar sifatida munosabatda bo'lish

### **7. Resurslarni aniqlash**

Turli xildagi o'rganish maqsadlariga mos resurslarni aniqlash qobiliyati.

### **8. Strategiyalarni tanlash.**

O'rganish resurslaridan foydalanish uchun samarali strategiyalarni tanlash va bu strategiyalarni mohirlik va tashabbuskorlik bilan bajarish qobiliyati.

### **9. Dalillarni to'plash va tasdiqlash**

Turli xil o'rganish maqsadlarining bajarilganligini tasdiqlovchi dalillarni to'plash va tasdiqlash qobiliyati<sup>4</sup>.

Albert Bandura mustaqil ta'lim haqida turli tadqiqotlar olib borgan va uning o'rganish mazariyasini behavioristik va kognitivistik yondashuvlar o'rtasida bog'lovchi konsepsiya sifatida talqin qiladi. Bandura o'rganish jarayonini nafaqat tashqi rag'bat yoki ichki bilish faoliyati bilan izohlaydi, balki insonlarning bir-birini kuzatishi, taqlid qilishi va modellashtirish orqali

<sup>4</sup>Knowles, M. S. Mustaqil ta'lim: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun qo'llanma / Malcolm S. Knowles. – Chicago: Follett Publishing Company; Association Press, 1975. – 135 b. – ISBN 0-695-81116-9.

o'rganishini asosiy mexanizm sifatida ko'rsatadi. A. Bandura nazariyasining ahamiyati shundaki, u behavioristik yondashuvda urg'u beriladigan tashqi ta'sirlar bilan kognitivistik yondashuvda asos bo'ladigan ichki bilish jarayonlarini yagona tizimda birlashtiradi. Bu jarayonda diqqat, xotira va motivatsiya o'rganishning ajralmas tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi. Self Cognitive Theory ya'ni Ijtimoiy Kognitiv teoriyasi- bu shaxsiy, xulq-atvor va atrof-muhit omillari o'zaro ta'sir qiluvchi tizim sifatidagi o'rganish nazariyasi<sup>5</sup>. Bu nazariya 3 omilga bog'liq:

1. Shaxsiy omillar-bular kognitiv jarayonlar, ishonch (belief), kutuvlar, o'z samaradorlik.
2. Xulq-atvor omillari-harakatlar, tanlashlar, verbal iboralar
3. Atrof-muhit omillar-ijtimoiy ta'sir, fizik muhit, imkoniyatlar va cheklovlar<sup>6</sup>

A. Banduraning yana bir mustaqil ta'lim haqidagi "Self-efficacy" ya'ni o'z samaradorlik teoriyasiga ko'ra bu insonning ma'lum vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan harakatlarni tashkil qilish va amalga oshirish qobiliyatiga ishonchi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U shaxsning faolligi, mas'uliyati va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim faqat individual jarayon emas, balki ijtimoiy hamkorlik va pedagogik qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liq.

Shuningdek, pedagogik va andragogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Talabalarda ichki motivatsiyani kuchaytirish, o'z ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va baholash ko'nikmalarini shakllantirish mustaqil ta'limning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa raqobatbardosh va o'rganishga tayyor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Bandura A. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.
2. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
3. Dewey J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
4. Knowles M. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. – New York: Cambridge Adult Education, 1975. – 135 p.
5. Knowles M. *The Modern Practice of Adult Education: Andragogy versus Pedagogy*. – New York: Association Press, 1970. – 276 p.
6. Montessori M. *The Montessori Method*. – New York: Frederick A. Stokes Company, 1912. – 377 p.
7. Smiles S. *Self-Help*. – London: John Murray, 1859. – 352 p.
8. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner. – *Theory Into Practice*, 2002. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70.

<sup>5</sup>Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

<sup>6</sup> Bandura, A. (1989). Human agency in social cognitive theory. *American Psychologist*, 44(9), 1175-1184.